

"O'zkimyosanoat" Ajda raqamli transformatsiya: kimyo sanoatida yangi bosqich

// 27.04.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-ajda-raqamli-transformatsiya-kimyo-sanoatida->



2026-yilning birinchi choragida "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan kimyo sanoatini raqamlashtirish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish borasida qator muhim ishlar bajarildi. Bu jarayonlar tarmoqning shaffofligi, samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Jumladan, kimyo tarmog'i uchun yagona raqamli platforma doirasida keng qamrovli ma'lumotlar bazasi shakllantirildi. Mazkur baza sohada faoliyat yuritayotgan 13 459 ta tashkilot haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Unda korxonalarning litsenziyalari, import-eksport operatsiyalari, moliyaviy ko'rsatkichlari hamda boshqa muhim ma'lumotlar jamlangani tarmoqni kompleks tahlil qilish va samarali boshqarish imkoniyatini yaratadi.

Yaratilgan yagona platforma kimyo sanoatidagi barcha ishtirokchilar uchun qulay raqamli muhitni shakllantirib, qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish, ma'lumot almashinuvini yaxshilash va tahlil imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu orqali tarmoqdagi ishlab chiqarish, savdo va moliyaviy jarayonlarni muvofiqlashtirish yanada samarali yo'lga qo'yilmoqda.

Shu bilan birga, inson kapitali rivojiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zkiyosanoat" AJ va uning tarmoq korxonalarida raqamlashtirish jarayonlariga mas'ul bo'lgan 101 nafar rahbar va mutaxassis "Besh million sun'iy intellekt yetakchilari" dasturi doirasida malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli tamomlab, tegishli sertifikatlarga ega bo'ldi.

Umuman olganda, "O'zkiyosanoat" AJda amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari kimyo sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, uning investitsion jozibadorligini oshirish hamda xalqaro bozorlardagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.